

ANRI BERGSON MATERIYA VA XOTIRA HAQIDA.

**Royka Yekaterina Angelos-O'zbekiston milliy universiteti "Falsafa" kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi.**

roykayekaterina@gmail.com

Orcid ID: 0009-0000-4071-9413

Annotatsiya: Maqola mashhur fransuz faylasufi, intuitiv falsafaning asoschisi Anri Bergson ijodida ko'tarilgan qiziqarli muammoni o'rganishga bag'ishlangan. Anri Bergson falsafasida materializm va idealizm chegaralari yengib o'tilib, panteistik ruhiyatga asoslangan yondashuv shakllangan. U ongni miyaning mahsuli emas, murakkab ruhiy va moddiy jarayonlarning uyg'unligi sifatida tushunadi va xotirani mexanik hamda spontan (obrazli) turga ajratadi. Ushbu xotiralar ijodiy jarayonda muhim rol o'ynaydi va maqolada tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Materiya, timsol, ruhiy faoliyat, ong, ongsiz jarayon, mexanik xotira, spontan – obrazli xotira, intuitsiya, kuch maydoni, xotira kuch oqimi sifatida.

АНРИ БЕРГСОН О МАТЕРИИ И ПАМЯТИ

**Ройка Екатерина Анджелос - независимый исследователь, кафедра
«Философия», Национальный университет Узбекистана.**

roykayekaterina@gmail.com

Orcid ID: 0009-0000-4071-9413

Аннотация: Статья посвящена изучению интересной проблемы, поднятой в творчестве известного французского философа, основателя интуитивной философии Анри Бергсона. В философии Анри Бергсона преодолены границы материализма и идеализма, сформирован подход, основанный на пантеистическом понимании духовного. Он рассматривает сознание не как продукт мозга, а как результат гармоничного взаимодействия сложных психических и материальных процессов, разделяя память на механическую и спонтанно-образную. Эти виды памяти играют важную роль в творческом процессе и анализируются в статье.

Ключевые слова: материя, образ, психическая деятельность, сознание, бессознательный процесс, механическая память, спонтанно-образная память, интуиция, поле силы, поток силы памяти.

HENRI BERGSON ON MATTER AND MEMORY

**Yekaterina Angelos Royka - Independent Researcher, Department of
Philosophy, National University of Uzbekistan.**

roykayekaterina@gmail.com

Orcid ID: 0009-0000-4071-9413

Annotation: The article is devoted to the study of an intriguing problem raised in the works of the renowned French philosopher and founder of intuitive philosophy, Henri Bergson. In Bergson's philosophy, the boundaries between materialism and idealism are transcended, forming an approach based on a pantheistic understanding of the spiritual. He considers consciousness not as a product of the brain, but as the result of the harmonious interaction of complex mental and material processes, and distinguishes memory into mechanical and spontaneous (imaginary) types. These forms of memory play a significant role in the creative process and are analyzed in the article.

Keywords: matter, image, mental activity, consciousness, unconscious process, mechanical memory, spontaneous–imaginary memory, intuition, field of force, memory as a flow of force.

KIRISH

XX asr falsafiy fikrida inson ongi va uning tabiati masalasi doimiy ravishda eng jiddiy va murakkab masalalardan biri bo'lib kelgan. Bu kontekstda, mashhur fransuz filosofi va intuitiv filosofiya asoschisi Anri Bergsonning ijodi alohida ahamiyatga ega. U o'z qarashlarida materializm va idealizm an'anaviy chegaralarini bekor qilib, ruhiy va moddiy voqeliklarning birligiga asoslangan panteistik yondoshuvni taklif qilgan. Bergsonning asosiy fikrlaridan biri – ongning miyaning mexanik mahsulidan tashqari, murakkab ruhiy va moddiy jarayonlar oqimi natijasida yuzaga kelishi. Bu qarash falsafiy ma'noda inson tajribasining ichki tuzilishi va uning yaratuvchanlik qobiliyatini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Uning xotira haqidagi nazariyasi, ya'ni xotirani mexanik va spontan – obrazli turlarga ajratishi, ijodiy jarayonda insonning tasavvur va fikrlov qobiliyatining markaziy ahamiyatini ochib beradi.

“Materiya va xotira” mavzusini o'rganish nafaqat inson ongi va uning ma'naviy tuzilishi haqidagi ilmiy mulohazalarni boyitadi, balki zamonaviy fan va pedagogikada, psixologiya va estetika sohalarida amaliy ahamiyatga ega. Bu maqola Bergsonning nazariy qarashlarini tahlil qilib, ong va xotiraning ijodiy jarayondagi o'rnini falsafiy nuqtai nazardan ochib berishga qaratilgan. Materiya – obrazning xotira bilan bog'liqligi muammosi A.Bergson “Hayot falsafasi”ning o'qildizini tashkil etadi”. Bergson uchun materiya va ruh bir-biri bilan qorishib ketgan. Miya va ong bir-biri bilan uzviy bog'liq fenomenlardir. Inson ongidan

tashqarida mavjud bo'lgan olam narsa-ashyolar olamini biz bilib olishga qodir emasmiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI.

Bergsonning “Materiya va xotira” asari falsafa olamida muhim o‘rin tutadi, chunki u materializm va idealizm chegaralarini yengib o‘tib, ong va xotiraning murakkab ruhiy-moddiy tabiatini o‘rganishga yangi yo‘nalish ochadi. Asarda ishlatilgan metodologiya nazariy falsafiy tahlilga asoslangan bo‘lib, unda xotira tushunchasining ikki turga – mexanik va spontan (obrazli) – ajratilishi ijodiy jarayonning mohiyatini tushunishda markaziy ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatiladi.

Bergsonning ishlari bilan tanishgan tadqiqotchilar bir ovozdan uning metodini fenomenologik va intuitiv uslublar bilan bog‘lashadi. U materiya va ong o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni, xotiraning ijodiy jarayondagi faoliyatini va insonning ruhiy tajribasini sistematik tarzda izohlashga harakat qiladi. Shu bois, maqolada adabiyotlar tahlili shundan iboratki, Bergsonning falsafiy g‘oyalari nafaqat psixologiya va epistemologiya sohalariga, balki san‘at va estetikaga ham qo‘llaniladigan metodlarni shakllantiradi.

Shuningdek, ilmiy manbalarni tahlil qilishda asarlarning tarixiy konteksti va Bergsonning falsafiy an‘analardagi o‘rni hisobga olinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida komparativ va analitik yondashuvlar ishlatiladi: material va ruh, mexanik va spontan xotira, ong va ongsiz jarayon o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganiladi. Bu metodlar orqali Bergsonning konseptual tizimi chuqurroq tahlil qilinadi va uning ijodiy jarayondagi amaliy ahamiyati ochib beriladi. Bergsonning metodologiyasi falsafiy tafakkur va ilmiy tadqiqotlarda ong va xotira masalasini o‘rganish uchun dolzarb vosita hisoblanadi. Uning intuitiv yondashuvi zamonaviy falsafa va psixologiyaning rivojlanishida, shuningdek, ijodiy jarayonni chuqur tushunishda asosiy metodologik baza vazifasini bajaradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

A.Bergsonning falsafiy ta’limotida inson ongining asosini xotira tashkil etadi. Mexanik xotira insonning amaliy faoliyati bilan bog‘liqdir. Spontan obrazli xotira esa, inson ong ostidagi ruhiy holat va tasavvurlar bilan bog‘liqdir. Spontan obrazli xotira intuitsiyani tashkil etadi va uni Bergson qalbdagi bilim deb hisoblaydi. Bu bilim konkret aniq tusga ega bo‘lmay umumiy simvolik shaklda namoyon bo‘ladi. A.Bergsonning ijodida inson borlig‘iga berilgan ruhiy tahlil XX-asrning o‘rtalarida K.Yungning analitik psixologiyasida davom ettirildi. A.Bergson va K.Yungda inson ruhiy mavjudot sifatida tahlil qilinadi va uning ong ostidagi ruhiy holat kuchlariga e’tibor qaratilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Anri Bergson o‘zining “Materiya va xotira” asarida materiyaning obraz, xotirani esa ideal jarayon sifatida talqin qiladi. Bu asarning kirish qismida u an’anaviy idealistik va materialistik falsafada uchraydigan “materiya”

tushunchasining tahlilini tanqid qiladi va o'z asarida bu tushunchani o'zgacha dunyoqarash nuqtai nazaridan talqin etishni maqsad qilib qo'yadi. Materialistlar "materiya" tushunchasini ongdan farq qiluvchi ob'ektiv reallik deb tushuntiradilar. Bu reallik ongimizda aks ettiriladi. Idealistlar esa "materiya"ni mutlaq ruhning mahsuli, deb uqtiradilar. Ularning fikricha, materiya ruhiy jarayonlardan tashqarida alohida mavjud emas. A.Bergson tomonidan materiyaga berilgan ta'rif yuqorida aytib o'tilgan idealistik va materialistik qarashlardan tubdan farq qiladi. Uning qarashlarida materiya va ruh yagona borliq sifatida berilgan. Ular bir-biri bilan bog'liq tarzda mavjuddir. Ruh moddiylashadi, materiya esa ruhiy jihatdan jonlanadi. Bu fikrni tasdiqlash uchun A.Bergson tabiiy fanlardan juda ko'p dalillar keltiradi. Ong va miya, moddiy va ruhiy, psixik va fizik jarayonlar – ikki qator bir-biridan alohida mustaqil bo'lgan hodisalar bo'lib, ular bir-birini kesib o'tadilar, lekin bir-biridan kelib chiqmaydi. Ong miyaning mahsuli emas, psixik jarayonlar esa, fiziologik jarayonlardan kelib chiqmaydi. Ong va miya bir-biriga mukammal ravishda moslashgandir, ular bir-biri bilan munosabatda bo'lsa ham biri ikkinchisiga sabab bo'la olmaydi.

Antik falsafada ong va miya masalasi jon va tana o'rtasidagi munosabat xotiradek murakkab bir mexanizmning tahlili sifatida berilgan. A.Bergson tana va xotiradagi bir qator ideal obrazlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib chiqadi. U moddiy olamni bir qator obrazlar, ongni ham shunday obrazlardan biri, deb hisoblaydi. Lekin ong o'zi ham obraz bo'la turib, cheksiz bir qator obrazlarni o'ziga sig'dira olarmikan? Agar moddiy va ruhiy olam o'rtasida o'tib bo'lmas to'siq bo'lganda, ong moddiy olamni bila olmagan bo'lar edi. Demak, ong ideal obraz bo'la turib, boshqa barcha obrazlarning imkoniyatlariga egadir. A.Bergsonning fikricha, materialistlar uchun butun olam obrazlar tizimi bo'lib, undagi barcha obrazlar sabab va oqibat aloqadorligiga mansubdir. Ong esa boshqa obrazlar tizimida markaziy o'rin egallaydi. Materializm moddiy olamni birlamchi deb hisoblaydi, idealizm esa ikkinchi qator obrazlarni, ya'ni ruh va ongni birlamchi deb hisoblaydi. Bergson quyidagi fikrga tanqidiy yondashgan holda, "tasavvur nazariy tusga ega bo'lib, sof nazariy bilimdir" [1.6-b], – degan fikrga tanqidiy yondashadi.

A.Bergson miyadagi neyrofiziologik jarayonlarni o'rganib chiqib, tasavvurning miyada joylashgan markazlari hech qanday bilish vazifasini bajarmasligini isbotlab beradi. Uning yozishicha, "bosh miyaning asosiy vazifasi telefon stansiyasining markazidan javob qaytarish jarayoniga o'xshashdir. Shunday qilib, bosh miyaning "asosiy vazifasi bu inson organizmi va tashqi muhit o'rtasidagi aloqalarni boshqarishdir" [1.7-b]. Tashqi muhitni aks ettirish ongli tusga ega bo'lib ko'rinadi. A.Bergson aslida shunday ekanmikan? – degan savol qo'yadi. Bergsonning fikricha his qilish, sezish jarayoniga xotira mexanizmi

aralashadi va bu jarayonga ong tus beradi. Xotira mexanizmi his qilish, tasavvur qilish jarayoniga o'tmishda bo'lib o'tgan xotiralardan ancha qismini qo'shadi va bu xotiralar bilan boyitilgan tasavvur murakkab ongli jarayonga aylanadi. Hech qanday his qilish, tasavvur etish qobiliyati xotirasiz bo'lmaydi. Bizning tasavvurimizda moddiy ob'ektlarning inson faoliyatida muhim bo'lgan tomonlari, xossalari aks ettiriladi va faoliyatimiz jarayonida o'zlashtiriladi. Moddiy ob'ektlarning faoliyatimizdan tashqaridagi ichki mohiyati qanday ekanligini bila olmaymiz, deb yozadi A.Bergson.

Demak, biz ob'ektlarning ichki mohiyatini bila olmaymiz, faqat ular bilan aloqada bo'lganimizdagina ularning bir qism xususiyatlari va ayrim tomonlarini bilishimiz mumkin. Buni biz stakandagi suvga qo'yilgan qalamning singanligiga o'xshatishimiz mumkin. Aslida qalam singan bo'lmay, u bizga shunday ko'rinadi. Shunday qilib, moddiy ob'ektlar yoki obrazlar tasavvurlarimizda o'zlarining asl holatlarida namoyon bo'lmaydi. A.Bergsonning fikricha, tasavvurlarimiz asab sistemasining faoliyati bilan bevosita bog'liq. Agar asab to'qimalarining bir qismi shikastlansa, ular bilan bog'liq tasavvurlarimiz yo'qoladi. Lekin bu tasavvurlar bizning nerv faoliyatimizning mahsuli, degani emas. Tasavvur ob'ekt va sub'ekt o'rtasidagi ko'prikdir. Sub'ekt tashqi olamni tasavvurlari orqali aks ettiradi va tasavvurlar aktiv faoliyatga undaydi. Bergson xotira mexanizmi tasavvurlardan tubdan farq qiladi, deb hisoblaydi. Xotira tasavvurlarning oddiy yig'indisi yoki uyushmasidan iborat emas. Xotirada shunday bir ruhiy kuch borki, bu kuch xotirani materiyadan farq qilishiga sabab bo'ladi. Idealistlarning asosiy xatosi, A.Bergsonning fikricha, materiyani ob'ektiv reallik sifatida inkor qilinishidadir. Materialistlarning xatosi esa ongni miyaning mahsuli, deb hisoblashlaridadir. Xotiraning fenomenligi shundan iboratki, u miya bilan bog'liqligiga qaramasdan, miyaning mahsuli emas. Aynan xotirada ruhning mavjudligi namoyon bo'ladi. "Shunday qilib, agar ruh real mavjud bo'lsa, xotira jarayonlarida biz uni mavjudligini his qilishimiz mumkin" [1.18-b].

"A.Bergson ikki toifadagi xotirani bir-biridan farqlaydi. Biri konkret timsollarga asoslangan bo'lsa, ikkinchisi abstrakt mexanik xotiradir" [5.159-b].

Timsollarga asoslangan xotira ob'ektni yaxlitligicha tasavvur etadi. Bunday xotira ob'ektni qismlarga bo'lmaydi, aksincha, uni yaxlitligicha aks ettiradi. Spontan – obrazli xotira asab tizimining motor funksiyasi bilan bog'liq emas, tasavvur va xayol bilan bog'liq, u ong osti bilan aloqadadir. Mexanik xotira harakat, qayta-qayta takrorlash va yodlash bilan bog'liqdir, deydi. Bu mexanik xotira esa spontan xotiraning faoliyatiga xalaqit berib, uni to'xtatib qo'yishga harakat qiladi. Spontan xotira borgan sari ong osti qatlamiga ko'cha boshlaydi. Xotirani kuchaytirish borasidagi barcha usullar ong ostida yashiringan obrazli xotirani kuchaytirish borasida A.Bergson quyidagi fikrni keltiradi: "Mexanik

xotira borgan sari obrazli xotirani ong ostiga siqib chiqaradi, lekin bizning tasavvurimiz va u bilan bog‘liq bo‘lgan harakatimiz o‘rtasida paydo bo‘ladigan daqiqalarda spontan xotira ong ostidan ko‘tarilib o‘zini namoyon etadi” [1.24-b].

Ta’sirlanish mexanizmi miyaning qatlamlari va markazlarida joylashmagan, aksincha, u asab sistemasining faoliyati bilan bog‘liqdir. Moddiy narsalarning obrazlari markazga harakat qiluvchi nerv tolalari orqali bosh miyaga yetib boradi va bosh miyadan, ya’ni markazdan qochuvchi nerv tolalari orqali bu timsol insonning sezgi organlariga qaytib boradi. Shunday qilib, ta’sirlanish doirasi ikkinchi ta’sirlanish doirasiga qo‘shiladi va ular ta’sirlanish maydonini tashkil qiladi. Bu ta’sirlanish maydoni eslashni tashkil etadi. Xotiraning eslash elementi bir qator ta’sirlanish doiralari bilan bog‘liqdir. Shunday qilib, xotira miya faoliyatining mahsuli emas, u murakkab ideal jarayondir. Bu jarayon asab sistemasining faoliyati bilan ta’sirlanish maydoni orqali bog‘liqdir. Uinslou va Ribo singari mashhur psixiologlarning tadqiqotlarini tahlil qilib, Bergson xotiradan so‘zlarni muayyan tartibda yo‘qolishini ko‘rsatadi. Birinchi ega so‘zlar, keyin esa kesim va fe‘llar yo‘qoladi. A.Bergsonning fikricha, so‘zlarni xotiradan muayyan tartibda yo‘qolishi, xotira va ongning oqim sifatida miya faoliyati bilan bog‘liqligini va ong oqimi miyaning mahsuli emasligini isbotlaydi. Aks holda miyaning ma’lum nerv tolalari ishdan chiqishi yoki zararlanishi lozim edi, aslida esa bunday emas. “Ikkala holatda ham miyadagi ta’sirlanish markazlari muayyan bir holatda zararlanishi va yo‘qolishi kerak edi, lekin aslida bunday holat kuzatilmaydi” [1.31-b].

Tovush orqali ifoda etiladigan so‘zlarni odamlar tomonidan tushunishni A.Bergson suhbat davomida odamlar o‘rtasida ong oqimlarining almashinuvi jarayoni, deb tushunadi. Bergson ong oqimini ideal jarayon deb hisoblaydi. Bu jarayon o‘zining tovushlardan iborat bo‘lgan moddiy karkasiga ega. “Ta’sirlanish haqida gap ketganda, ko‘pchilik uni xilma-xil hissiyotlar yig‘indisi, deb hisoblab, uning yadrosini tashkil etuvchi ta’sirlanish obrazlariga e’tibor berishmaydi” [1.34-b]. Assotsianizm ta’sirlanish ortida yotgan eslash va ideal obrazlarni ko‘rmaydi.

Oxirgi ikkita narsa, ya’ni eslash va ideal obrazlar assotsianizm tomonidan ta’sirlanishdan farq qilmaydigan narsa deb hisoblanadi. Shunday qilib, psixik hayot faqat hissiyot va obrazdan iborat, deb hisoblanadi. A.Bergsonning fikricha, ko‘pgina psixologlarning xatosi eslash va ta’sirlanishni bir-biridan ajratmaslikdadir. Ta’sirlanishning tabiati eslash jarayonining tabiatidan tubdan farq qiladi. Eslash, aslida, bu ideal obraz bo‘lib, u hech qanday miyaning moddiy faoliyati bilan bog‘liq emas. Eslash jarayonlari miyadagi jarayonlarga nisbatan simmetrik holatda joylashgan, lekin eslash jarayonlari miyaning faoliyatidan kelib chiqmaydi. “Hissiyotlar o‘lchamga ega, ular harakat manbaini tashkil etadi, eslash yoki xotirlash esa o‘lchamga ega emas, ular harakatsiz bo‘lib, hissiyotlarga

aloqador emas” [1.35-b].

“Men o‘zimning hozirgi holatim va harakatimni kelajakka qaratilgan munosabat, deb hisoblayman. Kelajakni esa hozirgi daqiqada sodir bo‘layotgan harakat deb tushunaman” [1.36-b]. Ongsiz tasavvurning g‘oyasi odamlarning oddiy fikr yuritish va tasavvurlariga nihoyatda yaqindir. Ko‘pchilikning fikricha, hissiyotlarimizdagi ta’sirlanishlar va tasavvurlar butun moddiy olamni aks ettirmaydi. Moddiy narsalarning timsollari insonning ong ostidagi xotirlash, eslash obrazlari orqali ifoda etiladi. “Bizning fikrimizcha, bir-biridan tubdan farq qiluvchi xotira mavjuddir. Birinchisi, ya’ni mexanik xotira insonning moddiy ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularni qondirishga qaratilgan. Ikkinchi xotira turi esa moddiy ehtiyojlar bilan bog‘liq emas. U ong ostida yashiringan ideal jarayondir” [2.38-b]. Insonning boshidan kechirgan barcha holatlari saqlanadi. Bu holatlarning o‘zaro aloqalari yagona bir borliqni tashkil etadi. Bu yagona borliqda esa o‘tmish, hozirgi zamon va kelajak yagona bir davomiylikni tashkil etadi. Agar ong ostidagi spontan xotirada o‘tmish hozirgi zamon va kelajak birlashsa, demak, o‘tmishga tegishli bo‘lgan mexanik xotira ham spontan xotira bilan bevosita aloqadadir. Bizning tanamiz va uning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mexanik xotira hozirgi zamon va o‘tmishdagi timsollarni o‘z ichiga oladi. O‘tmishdagi tasavvurlar insonning moddiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, unga ta’sir etgan shart-sharoitlarga javob beruvchi reaksiyadir. Bu reaksiya yoki ta’sirlanish insonning sensamotor faoliyati bilan bog‘liq. Sensamotor faoliyat va undan kelib chiqadigan ta’sirlanish orqali ong ostida yashiringan xotira mexanizmi moddiylashadi va yuzaga chiqadi.

Umumiy tushunchalar, umumiylikni tushunish inson ongining faoliyatidan kelib chiqadi. Bu uning yutug‘idir. Konkret vaqt va makonga xos bo‘lgan ayrim xususiyatlar bizning obrazli xotiramiz va umumiy g‘oyani o‘chiradi. Lekin ayrim narsalarning o‘xshashligini anglab yetish insonning obrazli xotirasini yana qaytadan tiklanishiga sabab bo‘ladi.

Aql va xotiraning birlashgan faoliyati natijasida ongimizda ayrim va umumiy narsalar haqidagi g‘oyalar shakllanadi. Azaldan bu umumiy g‘oya bizning sensamotor faoliyatimizni real voqelikka qaratilgan harakatidan kelib chiqqan edi. Bu harakat natijasida ta’sirlanishda paydo bo‘lgan obrazlarni anglab yetish uchun umumiy g‘oya xizmat qilardi. Ayrim narsalarni anglab yetish jarayonidan inson tafakkuri yuqoriroq bosqichda ayrim narsalarning o‘xshash tomonlarini ajratish va aks ettirishga erishadi. Bu o‘xshashlikni anglash esa umumiy tushunchalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Tafakkur hissiyotlar orqali ayrim narsalarning xususiy tomonlarini anglab, ularni umumlashtirib, tushunchalar qolipiga soladi va bu tushunchalarni til orqali ifoda etdi. Taxminimizcha, insonning harakati va obrazli fikr yuritishi o‘rtasidagi masofani faqat ruh bosib o‘tishi mumkin. Insonning harakatida ham, uning spontan obrazli xotirasida ham ruhiy faoliyatni ko‘rishimiz

mumkin. Ruh, ruhiy kuch insonni faol harakatga undaydi. Lekin bu harakatni qanday shaklda sodir bo'lishi yashaydigan moddiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Ilmiy tafakkur sohasida esa ruhiy faoliyat insonga katta erkinlik beradi. Uni tasavvur va xayollar dunyosiga olib kiradi va bu dunyodagi xayoliy tasavvurlarni o'z navbatida moddiy imkoniyatlardan kelib chiqib amalga oshirishga harakat qiladi. Inson o'zining ruhiy kuchi orqali fikrlarni moddiylashtira oladi, mehnati orqali esa orzu va xayollaridagi narsalarni amalga oshirib, moddiy borliqni o'zgartirishi mumkin. Bizning xatti-harakatlarimiz, amaliy faoliyatimizning barcha ko'rinishlari, ongimizdagi barcha fikrlarimiz aslida ruhning faoliyati va harakatidan kelib chiqadi. Demak, inson faoliyatini ham, fikr yuritishni ham ideal jarayon boshqaradi. "Ruhiy faoliyat inson hayoti davomida yig'ilgan taasurotlar, hissiyotlar va bilimlar majmuasidan ko'ra murakkabroq jarayondir" [1.40-b], – deydi Bergson. Hayotimizdagi barcha ruhiy kechinmalarning markazida ruh tushunchasi yotadi. Endi asab sistemasning tuzilishi va tarkibiga nazar tashlaylik. Bizning bu sohadagi bilimlarimiz fiziologiya fanining yutuqlariga asoslangandir. Bu fanning tadqiqotlari va izlanishlari e'tiborimiz markaziga asab sistemasidagi faol va passiv holatdagi asab turkumlarining va bosh miyadagi asab markazlarini ko'rsatadi.

Lekin bu fanlarning tadqiqotlarida ruhning mavjud yoki mavjud emasligi masalasi qo'yilmaydi. Nerv sistemasining markazida reflektor faoliyat tushunchalari yotadi va uning vazifasi ehtiyojlar faoliyatidagi hissiyotlarimiz o'rnini aniqlashdir. Sodda qilib aytganda, inson tanasida hissiyotlarga javoban asab to'qimalari va markazlari orqali faol harakatni yuzaga keltirish. Demak, tana his qiladi va bu hissiyotlarga taalluqli bo'lgan harakatni yuzaga keltiradi.

Nerv to'qimalarining va markazlarining faoliyati shu qadar mukammalki, ular inson tanasidagi barcha jismlarning mutanosib faoliyatida harakat qilishga imkon yaratadi va asab sistemasining sensamotor faoliyati orqali tananing barcha moddiy ehtiyojlarini ta'minlaydi. Agar bu faoliyat zaiflashsa, insondagi hayotiy kuch so'nadi. Bu sensamotor faoliyatining zaiflashishi ong osti holatiga o'tishiga sabab bo'ladi. Bu holatda inson o'zining moddiy va asab sistemasining sensamotor faoliyatidan begonalashib qoladi. Neyrofiziologiya fanining oxirgi tadqiqotlariga binoan asab sistemi sensamotor faoliyatining zaiflashishi va miyadagi ayrim markazlar o'rtasidagi aloqalarning uzilishi natijasida uyqu holati yuzaga kelar ekan. Demak, uyqu holati ham inson organizmidagi asab sistemi sensamotor faoliyatining zaiflashishi natijasida yuzaga keladigan ruhiy holatdir. Kun davomida asab to'qimalarida ishlab chiqariladigan toksinlar qonga o'tadi va kechasi asab sistemi faoliyatining zaiflashishiga olib keladi. Asab sistemasining bunday zaiflashishi esa uyquga sabab bo'ladi.

Lekin uyqu holatidagi ko'pchilik tushlarimiz aqldan ozgan odamning xayollariga o'xshab ketadi. Uyqu holati aqldan ozish holatlariga shu qadar o'xshaydiki, oxirgi yillardagi tadqiqotlarga binoan aqldan ozishning asosiy sababini ham xuddi uyquga o'xshab miya faoliyatining zaiflashishi va asab to'qimalarida ko'p miqdorda toksinlarning ishlab chiqilishi deb hisoblaydilar. Ma'lumki, inson organizmidagi yuqumli kasalliklar va ularning ta'siri natijasida miya faoliyatining shikastlanishi ko'pincha aqldan ozishning har xil holatlariga sabab bo'ladi. Tananing asosiy vazifasi faol harakat bo'lib, bu harakat natijasida ruhdagi ongsizlik holatlari va ayrim boshqa ruhiy holatlar e'tibordan chetda qoladi va ruhning bu faoliyati zaiflashib qoladi. Harakatga nisbatan ruh faoliyati faqat erkin tanlash huquqi bo'lib ko'rinadi.

Bunday ruhiy faoliyat ko'proq insonning erkin ruhiy tanlashi, deb tushuniladi. Insonning tafakkuri bilan ruhiy holati bir-biridan ajratiladi. "Tafakkurimizning asosida ta'sirlanishlar, hissiyotlar yotadi va ular tanamizning moddiy ehtiyojlariga qaratilgandir. Inson tanasi va uning ehtiyojlari xotira xazinasidagi barcha imkoniyatlarni ishlatmaydi" [1.44-b], – deydi A.Bergson. Xotiraning faqat ayrim qismigina, xususan, jismning moddiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan xotiralargina ong osti zahirasidan yuzaga chiqadi va inson ongida ongli ravishda ishlatiladi. Hayvonlar o'z faoliyatini faqat instikt orqali amalga oshirishi mumkin. Inson esa ongli ravishda o'z tafakkurining kuch-qudrati orqali ruhning ong ostidagi xotira zahiralarga kirishga harakat qiladi. Bizning ruhiy faoliyatimizning asosiy qismi harakatga yo'naltirilgan va moddiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan.

Bu asarda berilgan tahlil psixologik muammolar bilan bir qatorda falsafiy muammolarni ham e'tibor markaziga joylashtirdi. E'tiborimizni o'ziga tortgan ruh va materiya xususan, bu tadqiqotda xotira ruhiy jarayon sifatida va miya o'rtasidagi munosabatlar hozirgi zamon psixologiya va fiziologiya tadqiqotlari natijasida berildi. Bu muammoning yana bir tomoni jon va tana munosabatlari muammosidir. Jon va tana o'rtasidagi munosabat ruh va materiya o'rtasidagi munosabat bilan aynan bir narsadir. Ruh va materiya o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib bo'lmaydi, degan fikrga biz qo'shilmaymiz. Aksincha, materiyaning miya shaklini o'rganar ekanmiz, xuddi shunday ruhning xotira holatini zamonaviy psixologiya va psixiatriya tomonidan tadqiq etilishi bu masalani o'rganish zarur ekanligini ko'rsatadi. Bir tomondan, psixologiya, psixiatriya fanlari, ikkinchi tomondan esa, fiziologiya va neyrofiziologiya fanlari va ulardagi tadqiqotlar ruh va materiya o'rtasidagi munosabatlarga yangicha qarashga imkon ochib bermoqda.

Psixologik tadqiqotlar ruh va tana o'rtasidagi farq bilan ularning o'zaro aloqalarini yoritishga yordam beradi. Ruh va materiya masalasi falsafada asrlar davomida murakkab ziddiyatli antitezalarga sabab bo'ldi. Bir tomondan, ko'lam va

ko‘lamning yo‘qligi, ikkinchi tomondan esa, sifat va miqdor masalalari yangidan-yangi mkammolarni keltirib chiqardi. Bir tomondan, ruh yagona borliqni tashkil etadi, ikkinchi tomondan esa, bu borliq ayrim jarayonlardan iborat. Bu antinomiylar falsafada uzoq yillar davomida o‘z yechimini topa olmay keldi.

Bizning fikrimiz materialistlarning falsafiy qarashlaridan ham, idealistlarning qarashlaridan ham farq qiladi. Materialistlardan farqimiz shundaki, biz taassurotlarni serebral nerv faoliyatidan o‘zining xilma-xilligi va sifati bilan farq qiladi, deb hisoblaymiz. Idealistlardan esa farqimiz shundaki, biz moddiy olam ruhiy tasavvurlar chegarasidan chiqib ketadi, deb hisoblaymiz. Materialistlarning fikriga binoan, ijodkor qobiliyati materiyaning oliy shakli bo‘lgan miyaning faoliyatidir. Idealistlarning fikricha esa, ijodkorlik qobiliyati ruh faoliyatiga mansubdir. “Intuitsiya qobiliyati insonning tashqi va ichki olami, insonning ruhiy holati va moddiy hayoti o‘rtasidagi uzviy aloqalarni his etishga imkoniyat beradi” [1.45-b], – deb ta’kidlaydi A.Bergson.

“Lekin biz bu aloqalarni uzib tashlaganimiz uchun endilikda intuitsiyani tashqi va ichki ruhiy va moddiy holatlar orqali o‘rganishga majburmiz. Biz tajribadan kelib chiqishga harakat qilamiz. Ammo bu tajribaga asoslangan xulosalarimiz uchun mustahkam zamin yaratmaydi. Tajribani o‘rganar ekanmiz, bu tajribada insonning manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan bosqichni ajratishimiz kerak. Aynan shu bosqichdan boshlab tajribaning ko‘rinishi o‘zgaradi. Tajribaning asl mohiyatini o‘rganmoqchi bo‘lsak, inson manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan qismini o‘rganishimiz kerak”. Tajribadagi obektlar bizning sezgi organlarimiz orqali ifoda etiladi va his qilinadi. “Ayrim jismlarning ko‘lami, rang va miqdori haqida biz hissiyotimiz orqali bilishimiz mumkin. Hissiyotimizdan tashqarida ob’ektiv jismlarning xossalari haqida hech qanday bilimga ega emasmiz”

Narsalarning ayrimligi haqida biz sezish va paypaslash orqali bilamiz. Narsalarning yaxlitligi haqida ma’lumotni esa ko‘rish orqali olamiz. Narsalarga ko‘zimiz bilan qaraganda, ularni yaxlit surat sifatida ko‘ramiz va ularni ayrim xossalarga ajratmaymiz. A.Bergsonning fikricha, “moddiy olam ayrim qattiq jismlar va ularning to‘qnashuvlaridan iborat emas. Bizning moddiy manfaatimizgina olamni ayrim qattiq jismlardan iborat, deb hisoblashga majbur qiladi” [3.50-b]. “A.Bergsonning uqtirishicha, bu olamdagi barcha narsalar bir-biri bilan ajralmas aloqadadir. Insonning hayoti va faoliyati moddiy borliq bilan chambarchas bog‘liqdir. Lekin insonning moddiy manfaatlari bu aloqalarning sababi bo‘lmoqda. Natijada inson o‘zining hayoti va borligidan boshqa narsalarning borlig‘ini ajratadi va bu narsalardan foydalanishga harakat qiladi” [6.55-b]. Buning natijasida tajriba subekti va obekti o‘rtasida farq paydo bo‘ladi.

XULOSA.

Anri Bergson falsafasida inson ongining mohiyati va uning xotira bilan bog'liqligi markaziy o'rin tutadi. Uning fikricha, inson tasavvurlari va bilish jarayoni moddaning bevosita in'ikosi emas, balki sensamotor faoliyat natijasi bo'lib, inson organizmining moddiy olamga moslashish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bilish jarayoni o'z navbatida ong ostidagi xotiralash psixik holatidan kelib chiqadi va u faqat tashqi olamni aks ettirish bilan cheklanmaydi. Bergson xotirani ikki turga ajratadi: mexanik xotira va spontan obrazli xotira. Mexanik xotira insonning asab tizimi bilan bog'liq bo'lib, takroriy harakatlar natijasida shakllanadi, spontan obrazli xotira esa ong ostidagi yashirin ruhiy faoliyatni ifodalaydi va mexanik xotiradan tubdan farqlanadi. Shu bilan birga, Bergson ta'kidlaydiki, xotiraning har ikkala turi ham tafakkur mahsuli emas, aksincha xotira va tafakkurning o'zi ong ostidagi ruhiy faoliyatning natijasidir. Bundan kelib chiqadiki, materiya va ob'ektiv reallik ham inson ruhiy faoliyati bilan uzviy bog'langan bo'lib, inson ongidan tashqarida mustaqil mavjud bo'lmaydi. Shunday qilib, Bergson falsafasi inson ongini, xotira va tafakkur jarayonlarini yagona ruhiy-moddiy uzviylik kontekstida tahlil qilishga yo'naltiradi, bu esa zamonaviy psixologiya, pedagogika va estetik tafakkurda ijodiy jarayonlarni chuqur tushunish uchun asosiy ilmiy va falsafiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Бергсон А. «Материя и память». – М.: Мысль, 1998. – С. 6.
2. Бергсон А. Творческая эволюция. – М.: Кучково поле, 1998. – С. 382.
3. Бергсон А. Творческая эволюция / Пер. с фр. В. Флеровой; Вступ. ст. И. Блауберг. – М.: ТЕРРА-Книжный клуб; КАНОН-пресс-Ц, 2001. – С. 384.
4. Веригов И.Д. Анри Бергсон и понятие времени в философии XX века: // Дискуссия журнал научных публикаций. № 7 (37), август (2013).
5. Кабулниязова Г.Т. Спонтанно-образная память в творчестве Анри Бергсона и в суфизме (сравнительный анализ). Вопросы философии. – 2022. – № 12. – С. 159-167.
6. Кабулниязова Г.Т. Мутафаккирлар Ф.Ницше ва А.Бергсоннинг ҳаёт фалсафасида инсон муаммоси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти нашриёти, 2010.
7. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 720.